

## INKLYUZIV TA'LIM JARAYONIDA MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGLARINING HAMKORLIK ISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Rasuleva Dildora Yadgarovna

Xalqaro Nordik Universiteti magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10996629>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yurtimizda joriy qilinayotgan yangi ta'lism tizimi ya'ni inklyuziv ta'lism tizimining takomillashuvi va bu ta'lism tizimini rivojlantirish maqsadida yangi qaror va farmonlar qabul qilinib, vazifalar yuklatilganligi, va bu ta'lism tizimi maktabgacha ta'lism tashkilotlarida hamda umumta'lism mакtablarida joriy qilinganligi hamda ushbu ta'lism tashkilotlarda faoliyat yurutuvchi pedagoglarning o'zaro hamkorlik ishlarinini integratsiya qilish muhimligi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lism, inklyuziya, integratsiya, alohida ta'limga ega bolalar, individual qobiliyatlar, kuchli va zaif tomonlari, kompetensiya, usullar.

## IMPROVING THE COOPERATION OF PRESCHOOL AND PRIMARY EDUCATION PEDAGOGUES IN THE PROCESS OF INCLUSIVE EDUCATION

**Abstract.** In this article, the new educational system introduced in our country, that is, the improvement of the inclusive education system, and new decisions and decrees have been adopted and assigned tasks in order to develop this educational system, and this educational system is used in preschool educational organizations and in general. it is introduced in educational schools and the importance of integrating the work of pedagogues working in these educational organizations.

**Key words:** inclusive education, inclusion, integration, children with special education, individual abilities, strengths and weaknesses, competence, methods.

## УЛУЧШЕНИЕ СОТРУДНИЧЕСТВА ПЕДАГОГОВ ДОШКОЛЬНОГО И НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ПРОЦЕССЕ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

**Аннотация.** В данной статье введена новая система образования, т.е. совершенствование системы инклюзивного образования, приняты новые решения и постановления и поставлены задачи по развитию этой системы образования, а также эта образовательная система реализуется в дошкольном образовании. организаций и в общеобразовательных школах и важность интеграции работы педагогов, работающих в этих образовательных организациях.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, инклюзия, интеграция, дети со специальным образованием, индивидуальные способности, сильные и слабые стороны, компетентность, методы.

## KIRISH

Jahon miqyosida juda ko'plab davlatlarda inklyuziv ta'lism tizimini joriy qilish borasida amaliy tajribalar olib borilmoqda. Horijiy manbalarni tizimli tahlil qilish asosida inklyuziya g'oyasini amalga oshirishda nazariy va amaliy tajriba ko'p bo'lgan mamlakatlarda inklyuziv ta'lism rivojlantirishning hozirgi holati va tendensiyalari aniqlangan. Germaniya, Buyuk Britaniya, Daniya, Italiya, Shvetsiya va Amerika Qo'shma Shtatlari va dunyoning boshqa mamlakatlaridagi ta'lism tizimini takomillashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Buyuk Britaniya, Daniya, Koreya,

Yaponiya, Avstraliya kabi bir qator mamlakatlarda maktab turini tanlash qonun tomonidan belgilanadi, ota-onalar esa ta'lim turini tanlashni yozma ravishda tasdiqlashi, ayrim hollarda asoslab berishlari lozim, deb topilgan. 1979 yilda Germaniyada ta'lim to'g'risidagi majlis qatnashchilari tomonidan maxsus ehtiyojli bolalarni integrasiya ta'lim tizimida o'qitish konsepsiysi ishlab chiqildi. Bu konsepsiyada integrasiyaning xilma xilligi va uning mazmun-mohiyati yoritib berildi. B.L.Puzanov va Yu.A.Kostenkova yozishlaricha 80 yillarga kelib Germaniya ta'lim tizimida integrasiyalashning yangicha talqini o'quv materialini o'quvchilar imkoniyatlariga moslashtirish ishlari amalga oshirila boshladи. Shvetsariya rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar ta'limning asosiy qismini ommaviy maktabda olishlarini ko'zda tutuvchi dastur mavjud.

O'qituvchilar to'rt kishidan ommaviy maktabning uchta o'qituvchisi va imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash bo'yicha maxsus tayyorgarlikka ega bitta o'qituvchidan iborat guruh faoliyat ko'rsatadi. Maktab ma'muriyati uch oyda bir marotaba ta'lim psixologiyasi doirasidagi mutaxassislar bilan bir marta uchrashib, zarur tadbirlar va ota-onalar bilan uchrashuvlar borasida maslahatlashib oladilar. Bunday yondashuv, o'qituvchi mehnatini samaradorligini oshirish, integratsiya sinflarida ta'lim metodlarini qo'llashda muhim omildir.

Hozirgi kunda ko'plab davlatlar qatori O'zbekistonda alohida ta'limga ehtiyoji bo'lган bolalarning ta'lim va tarbiya olishlari hamda ularning haq-huquqlari qonun hujjatlari bilan mustahkamlanib va himoya qilinmoqda.

Yangi O'zbekistonda 2023-yil 30-aprel kunida o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 9-bob 50-moddasida "Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlari ega bo'lган bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi" deb belgilb qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-sон Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlanishish kontseptsiyasida alohida ta'limga ehtiyojlari bo'lган bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilashning bir qancha chora-tadbirlarini amalga oshirish bo'yicha vazifalar belgilandi.

Xalq ta'limi tizimida jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lган bolalar uchun 86 ta ixtisoslashtirilgan maktab va 21 ta maktab-internat mavjudligi, ularda 20 610 nafar bola ta'lim olishi qayd etilgan bo'lib, shuningdek jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lган va uzoq muddatli davolanishga muhtoj 13437 nafar bolalar uyda ta'lim olayotganliklari alohida ko'rsatilib o'tilgan.

Respublikamizda 2020 yil 13 oktyabrda qabul qilingan «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lган bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi prezident qarorining 1-ilovasida 2020 - 2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlanishish Konseptiyasining 2-bobi 3 bandida "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lган bolalarni sog'lom bolalar qatorida umumta'lim maktablarida o'qitish amaliyotini rivojlanishish maqsadida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarning umumta'lim maktablariga integrasiyalashuvi tajribasi qo'llanilishi natijasida so'ngi yillarda 500 nafarga yaqin alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lган o'quvchilar umumiyl o'rta ta'lim maktablariga qaytarilganligi va hozirgi kunda 3,2 mingdan ortiq umumiyl o'rta ta'lim maktablarida 13 ming nafarga yaqin o'quvchilar inklyuziv ta'lim bilan qamrab olinganligi "ko'rsatib o'tilgan".

ADABIYOTLAR SHARHI

Uzluksiz ta’lim jarayonida inklyuziv ta’lim texnologiyalarini joriy etish bo'yicha tadqiqotchi olimlar С.Н. Германовна , Е. В. Кетриш, Э.Федюшина, Д.Ю. Скрябина Я.Е.Корлякова оlib borgan tadqiqot ishlarida horijdagi inklyuziv ta’lim jarayonlari hamda pedagoglarni tayyorlash haqida o'z fikrlarini bildirishgan. Л.Бутабаева, А. Умирбекова, С. Исмагулова, А. Жусип томонидан оlib borilgan tadqiqot ishida pedagoglarning refleksiyasini keng yoritib berilgan. Л.Антонова, Л.В.Желнакова, Б.П.Пузанов, Н.П.Коняева, Б.Б.Горскин, Е. Ю. Головинская inklyuziv ta’limning ijtimoiy hayotdagi metodologik jihatlari tadqiqot ishlarida keng yoritilgan.

O'zbek taqqiqtchilari D.S.Qaxarova inklyuziv ta'limning pedagogik-psixologik jihatlarini takomillashtirishni , F.U.Qodirova,D.A.Pulatova tomonidan inklyuzv ta'lim fani bo'yicha o'quv-metodik qo'llanmalar ishlab chiqilgan. A.T.G'aniyevaning ilmiy maqolasida inklyuziv ta'limni horijda rivojlanishini yoritib berilgan. .M.Yusupova boshlang'ich sinf o'qituvchisining inklyuziv ta'limdagi tutgan o'rni haqida fikr bildirgan. G.S Xoldarova, F.U.Qodirova,SH.Z.Matupaeva, inklyuziv ta'lim jarayonidagi muammo va yechmlarini o'rganishdagi fikrlari qayd etilgan. Horijiy davlatlardagi inklyuziv ta'lim bo'yicha tadqiqot ishlarini olib boruvchi H.Warming, J.Linda, Melike Yozgatli, L.Trofin, A. Gremalschi,,V. Cojocaru,I. Lonean,, S.Velea, M.Lefter,V. Strat, Stephen Roche inklyuziv ta'lim texnologiyalari hamda o'qituvchilarning kasbiy kompitensiyalari haqidagi qarashlarini bayon etishgan.

## **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Alovida ta’limga ehtiyoji bo’lgan bolalar oiladan, maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan, ko’ptarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan kerakli hujjatlar asosida umumta’lim maktablarining boshlang’ich sinfida o’qishi belgilanadi. Ko’ptarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglari bu bolalar bilan olib borilgan ta’limiy, tarbiyaviy, korreksion ishlar, qo’llanilgan metodlar bola tashkilotda bo’lgan vaqtida amalga oshirilgan bo’ladi. Bolaning kuchli va zaif tomonlari o’rganilib, ularning bilim, ko’nikma va malakalarini rivojlantirishda alovida yondashuv asosida ta’lim, tarbiya jarayonlari to’g’ri va samarali tashkil etish uchun pedagoglarning o’zaro hamkorligi asosida aniq maqsadlar belgilab olinadi.

NATIJALAR

Uzluksiz ta’lim jarayonida inklyuziv ta’lim uzviyligini ta’minlash texnologiyasining ilmiy-nazariy jihatdan asoslash, tahlil qilish, umumlashtirishda maktabgacha ta’lim tashkiloti va boshlang’ich sinf pedagoglarining kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirishda o’zaro hamkorlik ishlarining to’g’ri va samarali yo’lga qo’yilishi, bo’lajak 1-sinf o’quvchilarining ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini tashkillashtirish hamda rahbariyat tomonidan bunga yetarlicha shart-sharoitlarni yaratilishi mavzu yuzasidan qo’yilgan maqsadlarga erishilishiga olib keladi.

## XULOSA VA MUNOZARA

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda inklyuziv ta'lim uzviyligini ta'minlashda hamkorlik ishlarini yo'lga qo'yish kerak. O'qituvchilar uchun hamkorlik va o'zaro fikr almashish muhim sanaladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari hamda boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi o'z faoliyatini tizimli baholab borishi, malakasini muntazam oshirishi, alohida ta'lim ehtiyojlari bor bolalarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ular bilan olib borilgan ta'limiy, tarbiyaviy, korreksion

ishlar, jarayonlarni tashkil etishda qo'llanilgan usullar, vositalar qanday samara berishini kuzatishi, tahlil qilish, ish rejalarini tuzish, maqsad va vazifalarni belgilab olishlari pirovardda, tarbiyalanuvchilar va o'quvchilar bilan til topishda, ularning imkoniyatlarini inobatga olishga har taraflama yordam beradi. Alohida ta'limga ehtiyojli bolalar ta'limi uchun psixologik-pedagogik yordamni yaratish uchun mutaxassislar bilan o'zaro aloqada bo'lish, interfaol texnologiyalar yordamida yanda rivojlantirish o'qitishning moslashuvchan shakllariga, interfaol o'qitish uslublariga ega bo'lishi zarurdir. Psixologik-pedagogik qo'llab quvvatlashda pedagog alohida ta'limga ega bo'lgan bolalarning qobiliyatini yanada rivojlantirishga, bolaning hissiy barqarorligini nazorat qilishni o'z oldiga maqsad qilib olishi va muammolarni vaqtida aniqlab, birqalikda hal qilish, keng qamrovli maktab va maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasida hamkorlik ishlarini yanada rivojlantirilishni talab qiladi

Inklyuziv ta'lim jarayonida alohida ta'limga ega bolalarning ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayonini tizimli, maqsadli hamda to'g'ri tashkil etish uzlusiz ta'limda faoliyat yurituvchi pedagoglarning kasbiy, shaxsiy, kommunikativ kompetensiyalarini rivojlanganligiga va tajribasiga bog'liqdir.

## REFERENCES

1. Н.Г.Сигал: Современное состояние и тенденции развития инклюзивного образования за рубежом Казань – 2016
2. Б.П.Пузанов, Н.П.Коняева, Б.Б.Горскин и др:Обучение детей с нарушениями интеллектуального развития :О-2 Олигофренопедагогика): учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений /
3. Б.П.Пузанова. – 4-е изд., стер. – М: Издательский центр «Академия», 2008
5. A.T.G'aniyeva: Ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni samaradorligini oshirishning o'zbekiston va xorijiy ta'lim tajribasi
6. D.Ya.Rasuleva;To'plam 7.06.2023 -14-47.pdf Uzlusiz ta'lim jarayonida inklyuziv ta'lim uzviyilagini ta'minlash tamoyillari Toshkent-2023
7. Ture Yonsson. Inklyuziv ta'lim. Toshkent -2003.
8. [https://spravochnick.ru/pedagogika/inklyuzivnoe\\_obrazovanie/](https://spravochnick.ru/pedagogika/inklyuzivnoe_obrazovanie/)
9. <https://uza.uz/oz/posts/inklyuziv-ta-lim-barcha-uchun-teng-va-bir-xil-imkoniyatlar-21-09-2016>
10. <https://yuz.uz/uz/news/inklyuziv-talim-rivojiga-talab-ham-ehtiyoj-ham-ortmoqda>
11. [https://www.norma.uz/oz/qonunchilikdayangi/bolalar\\_uchun\\_inklyuziv\\_talim\\_qanday\\_tashkil\\_etiladi](https://www.norma.uz/oz/qonunchilikdayangi/bolalar_uchun_inklyuziv_talim_qanday_tashkil_etiladi)